

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025  
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|                                                                                                                |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Г.Н.Давлятова</b>                                                                                           |     |
| Харизматический образ оратора в публичной речи.....                                                            | 110 |
| <b>Z.V.Alimova</b>                                                                                             |     |
| Navoiyning "Saddi iskandariy" dostonidagi ba'zi antonim so'zlar xususida.....                                  | 114 |
| <b>A.A.Qosimov</b>                                                                                             |     |
| Mythopoeic onomastics: a taxonomic paradigm for mythonymic construction in<br>C.S.Lewis's literary corpus..... | 119 |
| <b>S.M.Muminov, D.R.Abdumalikova</b>                                                                           |     |
| O'zbek va ingliz muloqot xulqida disputning lingvokulturologik asoslari.....                                   | 127 |
| <b>Sh.S.Mo'minov, N.M.Rahmatova</b>                                                                            |     |
| Boshqaruvga oid qarashlarning zamonlararo takomili .....                                                       | 131 |
| <b>M.O.Obilov</b>                                                                                              |     |
| Akademik diskursda funksional va pragmatik yondashuvlar: nazariy-metodologik asoslar .....                     | 134 |
| <b>A.O'.Abdullayev</b>                                                                                         |     |
| Kolorativ leksikada ramzlar talqini .....                                                                      | 138 |
| <b>Б.Мамедова</b>                                                                                              |     |
| Концептуальные основы языковой идентичности и отношений личности<br>и общества в мышлении XX века.....         | 144 |



UO'K: 81.22.82-312.8.81.373

## KOLORATIV LEKSIKADA RAMZLAR TALQINI

## ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СИМВОЛОВ В КОЛОРАТИВНОМ ЛЕКСИКЕ

## INTERPRETATION OF SYMBOLS IN COLOR LEXICS

Abdullayev Akmaljon O'ktamovich 

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

## Annotatsiya

*Maqolada kolorativ leksikada faol qo'llanuvchi ramzlarning o'ziga xos xususiyati, rang bildiruvchi so'zlarning ramziy ma'no ifodalash xususiyatlari va imkoniyatlari tahlilga tortilgan. Ushbu turdagi ramzlarning hududiy xoslanishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.*

## Abstract

*This article analyzes the characteristics of symbols actively used in color vocabulary, as well as the properties and possibilities for expressing the symbolic meaning of words denoting color. Information on the regional localization of this type of symbol is provided.*

## Аннотация

*В статье анализируются особенности символов, активно используемых в колоративной лексике, свойства и возможности выражения символического значения слов, обозначающих цвет. Приводятся сведения о региональной локализации данного типа символов.*

**Kalit so'zlar:** ramz, kolorativ leksika, rang, xromatik ranglar, axromatik ranglar, bir asosli ranglar, qo'shma asosli ranglar.

**Key words:** symbol, colorful lexis, color, chromatic colors, achromatic colors, monochromatic colors, mixed colors.

**Ключевые слова:** символ, колоритная лексика, цвет, хроматические цвета, ахроматические цвета, монохроматические цвета, смешанные цвета.

## KIRISH

Rang va u bilan bog'liq ramzlar kishiga olamni anglash va idrok etish, o'zaro muomala-muloqot jarayonlarining sodda va tushunarli bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Rang ramzlari kishilar ongiga shunchalik singib ketganki, muloqot jarayonini ularsiz tasavvur etish ancha qiyin. Birgina kiyimlar rangi bilan bog'liq jarayonni kuzatsak, ranglar yosh, jins, mavqe va qator omillarga muvofiq tarzda farqlanadi. Masalan, erkaklar kiyimi jiddiy, vazmin rangda, ayollar kiyimi jozibador, go'zal, o'ziga tortuvchi yorqin, keksalarning kiyimi oddiy, bosiq, kishi e'tiborini tortmaydigan ranglarda tayyorlanadi. Hattoki kiyimning ranglari kishilarning xarakter-xususiyatini ifodalab berishi uchun ham xizmat qilishi mumkin. Aytish lozimki, ranglarning bunday xususiyatlari ularning ramziy ma'nolari bilan uzviy bog'liqdir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ranglarning ramziy ma'noda qo'llanishi fanning bir qator sohalari, jumladan, psixologiya, falsafa, mantiq, lingvokulturologiya, uslubshunoslik va adabiyotshunoslik kabilar qatorida tilshunoslikda ham alohida e'tibor berib kelinadi. Ranglarning tildagi ifodalanishiga oid izlanishlar olib borgan olimlar B.Berlin, P.Kay, V.Tyornerlarning tadqiqotlarida rang orqali ma'no ifodalanishi lingvistik universallik ekanligi ta'kidlanadi va ushbu hodisa dunyo tillarining aksariyatida mavjudligi qayd etiladi [1, 158].

Rang, eng avallo, fizik (tabiiy) hodisa bo'lib, inson faoliyatining empirik, gnesologik, ontologik, estetik, etik qatlamlaridagi psixologik munosabatlarning shakllanishi natijasida e'tiqodiy va boshqa tushunchalarda ma'lum ramz, simvolni ifodalab "o'troqlashdi." [2. 68]



## TILSHUNOSLIK

Qator ilmiy adabiyotlarda ranglar va ularning ramziy ma'nolari, odatda, badiiy matnlarda o'ziga xos vazifa bajarishi ta'kidlab o'tiladi. Qayd etish lozimki, ranglarning ramziy ma'noda qo'llanishi birgina adabiyotda emas, ijtimoiy hayotning ajralmas qismiga aylangan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Rangda ramziy ma'nolarning shakllanishi tarixi qadimga borib taqaladi. Aytish joizki, olimlar tomonidan rangning ramziy ma'nosining yuzaga chiqishi ikki bosqichda shakllangani aniqlangan: birinchi bosqichda odam hodisani hissiy idrok etgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda – fikrni qayta ishlash, muayyan tilda so'zlashuvchilar jamoasi uchun muhim belgilarni ajratib ko'rsatish va ularni ramziy mazmun bilan ta'minlashdan iborat bo'ladi [10, 98].

Rang ifodalovchi leksemalarning mental mohiyatni konseptualashtirishda ishtirok etishi, jamiyat a'zolari dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlarini jonli va majoziy aks ettirishi, xalqning madaniy, milliy, ramziy, ijtimoiy-tarixiy va boshqa omillarining ma'lum bir ma'no ifodalashdagi ishtirokini ta'minlashi kabi xususiyatlari tildagi rang ramzlarning ko'pligiga sabab bo'lgan [9, 24].

Rang ifodalovchi so'zlar tilshunoslikda kolorativ leksikani tashkil etadi. Ushbu hodisani o'rganish esa mazkur turga mansub birliklarning leksik-semantik xususiyatlari, tildagi o'rni va rolini aniqlashga xizmat qiladi.

Lisoniy vositalar yordamida ranglarning ifodalanishi ikki turda – asosiy ranglar va ularga yondosh ko'rinishlar asosida ko'rib chiqiladi. Masalan, o'zbek tilida yetti xil asosiy xromatik ranglar (qizil, to'q sariq, sariq, yashil, havorang, ko'k, siyoh rang) va axromatik (qora, oq, kulrang) ranglar farqlanadi. Tabiatdagi qolgan ranglar esa tilshunoslikda asosiylarining hosilalari, deb qaraladi.

Tarixdan ma'lumki, ranglar madaniyat indikatorlaridan biri hisoblanadi. Mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar davomida ranglarning inson tomonidan "o'zlashtirilishi", ya'ni madaniy hayotga kirib kelishi bosqichma-bosqich yoki ketma-ket amalga oshirilgan. Masalan, hozirda madaniy jihatdan 11 ta asosiy rang ma'lum izchillikda kodlanishi qayd etiladi. Aniqlanishicha, dastlab, **oq** va **qora** ranglar inson hayotiga kirib kelgan va ular barcha xalqlarda, deyarli, bir xil ramziy ma'no ifodalaydi hamda 2 atama bilan nomlanadi. Rangga oid uchinchi atama sifatida **qizil** rang hisoblanadi. To'rtinchi atama **sariq** yoki **yashil**, beshinchi atama **sariq** yoki **yashil**, oltinchi atama **moviy**, yettinchi atama jirarang, sakkizinchi va undan keyingi atamalar sifatida **siyohrang**, **pushti** va **to'q sariq**, **kulrang** kabi ranglar nomlangan deb qaraladi. Madaniyat tarixini o'rganish davomida ushbu fikrlar o'z tasdiqini topdi. Masalan, qadimgi yunonlar ranglarni, asosan, **oq**, **qora** va **qizilga** ajratgan. Qolgan ranglarni esa yorqin (issiq) va qorong'u (sovuq) ranglarga ajratganlar. Ranglarning metaforik va ramziy tus olishi insonning faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir [15, 189].

O'zbek tilida rang ifodalovchi leksemalarni ularning hosil bo'lishi, tuzilishi va tarkibini inobatga olib, alohida guruhlariga ajratish va tasniflash mumkin. Masalan,

1. **Bir asosli**. Bu guruhga tarkibi bir asosdan iborat bo'lgan leksik birliklar kiritiladi **ko'k**, **qizil**, **oq**, **pushti** va **h**.

2. **Qo'shma asosli**. Ikki asosning birikuvidan hosil bo'lgan rang ifodalovchi qo'shma so'zlar: **jigar rang**, **bargi karam**, **kulrang**, **havo rang** kabi.

O'z navbatida biror predmet rangiga qiyosan, metaforik asosda olingan sodda so'zlar – **zar**, **tilla**, **shinni**; qo'shma so'zlar – **olma talqon**, **baqa to'ni** kabilar ham alohida guruhni tashkil etadi. Tilimizda yasovchi qo'shimchalar orqali yasalgan rang bildiruvchi so'zlar ham mavjud: **osmoni**, **samoviy**, **tovusiy**, **asali** va b. Shu bilan birga tilimizda ishlatilishiga ko'ra faol va nafaol rang nomlarini ham ajratish mumkin. Yuqorida keltirilgan **shinni**, **osmoni**, **baqa to'ni** kabilar arxaik so'zlar hisoblanib, bugungi kunda nistaban kamroq ishlatiladi.

O'zbek kolorativ leksikasida 100 ga yaqin rang ifodalovchi lingvistik vositalar mavjud bo'lib, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek misollar, asosan, hosila ranglar nomlari sanaladi. Bu so'zlarning tilimizda qo'llanish doirasi torroq. Shu sababli bunday ranglar orqali ramziy ma'no ifodalanishi holatlari, deyarli, uchramaydi. Tadqiqotimiz ranglar yordamida ramz ifodalash, ramzlarning lisoniy vositalar orqali ifodalanishiga bag'ishlanganligi sababli rang hosilalarini bildiruvchi so'zlar tadqiqiga chuqur to'xtalib o'tmadik.

Tilshunoslikda ranglarning talqini psixik va psixologik komponentlar bilan uzviy bog'langan holda olib boriladi va voqelikning ruhiyati, holatini aks ettiradi. Olimlardan B.A.Bazima ramz bildiruvchi ranglar sonini chegaralash g'oyasini ilgari suradi. U badiiy matnda nisbatan ko'p



qo'llaniladigan va matnning badiiy qiymatini oshiradigan ranglar – qizil, sariq, oq, qora va boshqalarni asosiy rang sifatida ajratishni taklif etadi [4, 158].

Shuningdek, olim rang bilan bog'liq ramziylikni uch asosiy turga ajratib izohlaydi:

1. Faqat bir rangning o'zidan iborat bo'lgan, boshqa ranglardan ajratilgan holda ma'lum bir ramz ifodalaydigan ranglar. Masalan, **oq, qizil, qora va h.k.**

2. Ikki yoki undan ortiq ranglarning qo'shilishidan hosil bo'lgan umumlashmalar. Bunda qo'shilma tarkibidagi ranglar faqat umumiy holdagina, bir butun ramzni ifodalaydi, yolg'iz holdagi ramziy ma'nosi yuzaga chiqmaydi. (oq sariq, qora qizil)

3. Rang va turli shakllar umumlashmasi. Ranglarning geometrik shakllar (aylana, to'rtburchak va b.) bilan uyg'unligi natijasida ramz ifodalanishi. Masalan, shaklga solingan qimmatbaho toshlar, turli taqinchoqlar va boshqalar.

N.A.Martyanova "ranglarni yashiringan ma'noga ishora qiluvchi ramzlar, deb qabul qilish mumkin" degan fikrni ilgari suradi. Tilda va nutqda rang bilan bog'liq ramzlar o'zida ramz ifodalash xususiyatiga ega bo'lgan va ega bo'lmagan rang leksemalari orqali ifodalanadi. Rang ifodalovchi so'zning dastlabki ma'nosi nisbatan mavhum bo'lgan mazmunning shartli ifodalovchisi sifatida yuzaga keladi [12, 55-56].

Olimlar tomonidan rang ifodalashning leksik-semantik mohiyatini aniqlash borasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida "insonda o'nga yaqin rang pigmentlari mavjudligi, ular har bir inson uchun o'ziga xosligi aniqlandi" [13, 252]. Ma'lum bir pigment genlari umumlashmasi orqali kishilarga biror rang va uning hosilalarini turlicha tushunish imkonini beradi. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, ranglarni idrok etish inson yashayotgan jamiyatdagi madaniyat, milliy o'ziga xoslik va an'analarga chambarchas bog'liq. Masalan, "**oq rang**" xitoyliklar yoki hindistonliklar uchun **motam rangi** bo'lsa, boshqa ko'plab xalqlar vakillari, jumladan, o'zbek xalqi uchun **ezgulik, tinchlik, baxt, yaxshilik, baxtli kelajak, yangi umid** ramzidir. Shuningdek, "**qizil rang**" Amerikada "**xavf**", Fransiya "**oliy tabaqa**", Hindistonda "**hayot**", Yaponiyada "**g'azab**", Xitoyda "**baxt**" ramzi hisoblanadi [3, 256].

Rang orqali ramz ifodalanishi milliy mentalitet bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har bir xalq vakili tashqi olamni turlicha, o'z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda anglaydi, tushunadi, his qiladi va bu uning tilida o'z aksini topadi. Masalan, "sariq rang ramziy ma'noda juda ziddiyatli bo'lib, bir tomondan u buyuklik, shon-shuhrat, shohlik, bayram ramzi bo'lsa, boshqa tomondan qo'rquv, xavf, kasallik, xiyonat, sotqinlikni ifodalaydi" [7, 181].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, har bir rang o'ziga xos, individual ramziy ma'noga ega. Masalan, **oq rang** – ezgulik, **qora rang** – yovuzlik, **yashil rang** – yoshlik, **sariq rang** – hijron, ayriliq va hokazo. Biroq kuzatishlarimiz davomida rang ifodalovchi so'zlar kontekst bilan bog'liq holda, turli ma'nolarda qo'llanilishi, turli tushunchalarni ramzlashtirishi aniqlandi. Masalan, "**yashil rang**" ko'p ma'noli bo'lib, qator xalqlar madaniyatida tabiatning ramzi sifatida qoraladi. A.Vejbitskayaning ta'kidlashicha, dunyoning ko'plab tillarida "yashil" so'zining ekvivalenti sifatida morfologik va etimologik jihatdan bog'liq bo'lgan **o't-o'lan, o'simlik** va boshqa **o'simlik dunyosi** vakillarining nomlari xizmat qiladi [5, 231]. Masalan, rus tilida «**zelen**» so'zi – «**o't-o'lan, o'simlik**», nemis tilida "**daraxtlar**", fransuz tilida "**tabiat**" kabi ma'nolarni ifodalaydi [17, 122]. O'zbek tili so'zlashuv nutqida "**yashil**" rang, odatda, "**ko'k**" leksemasi bilan ifodalanadi. Ushbu leksik vosita orqali, o't-o'lan, o'simliklar, yashil tabiat kabi ma'nolar ifoda etiladi ("**ko'k termoq**", "**ko'k somsa**"). Nemis tilida bu rang orqali "**sog'lom**", "**tetik**", "**zuvalasi pishiq**", "**yosh**", "**quvvat**" kabi kenseptlar aks ettiriladi.

Issiq iqlimli mamlakatlar xalqlarida yashil rang va uni ifodalovchi til birliklari "**rohatlanish**", "**osoyishtali va hordiq**", "**hosildorlik**" kabi tushunchalarni ramzlashtiradi, Qadimgi Misrda **yashil rang** odamlarni dehqonchilik va bog'dorchilikka o'rgatgan ma'bud **Osiris** ramzidir [16, 322]. O'rta asrlar hind she'riyatida esa jirkanch tushunchalar **yashil rang** orqali ifodalanadi. Rus tilida ham **yashil** leksemasi ishtirokida turli negativ tuyg'ularni ifodalashda ham foydalaniladi ("**зеленая тоска**", «**позеленеть от зависти**»).

Vaqtlar o'tishi bilan, **yashil rangni** ifodalovchi til birliklari yangi ma'nolarda qo'llanila boshladi va ularning ma'nolari kengayib borib, ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlarda "**yashil**" so'zi valyuta rangi bilan bog'liq holda "**pul**", "**boylik**" kabi ma'nolarni ramzlashtiradi. Hozirda o'zbek tilida qo'llanilayotgan "**yashil yo'lak**", "**yashil hudud**" kabi iboralar tarkibidagi "**to'siqsizlik**", "**ruxsat**"



## TILSHUNOSLIK

ma'nolari "yashil" leksemasining fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holda yuzaga kelgan yangi ma'nosi hisoblanadi.

Ranglarning aynan qaysi ramziy ma'noda qo'llanilayotgani kontekstda ravshanlashadi. Shuningdek, ranglar ko'p hollarda o'zi mustaqil emas, biror-bir predmet bilan birgalikda qo'llanib ramziy ma'no ham ifodalaydi. Shu sababli rang ramzlarini V.Vinogradov "nutqning badiiy hududiylik birligi" deb ataydi [6, 241].

Ajab mudhish qora tun kafan tutar,  
Bir zamon tinmaydir, izg'irar shamol.

(R.Parfi, "Abdurauf Fitrat")

Mazkur parchada keltirilgan qora rangning "behalovat", "yomonliklarga ko'milgan", "falokatli" kabi ramziy ma'nolari matndagi "mudhish", "tun" kabi leksumalar mazmuni orqali oydinlashmoqda.

Hali libosimiz ko'kdir, qarodir,  
Hali xotiraning yo'llari chaqin.

(U.Azim, "Dedilar...")

Yuqoridagi matndan ko'rinadiki, ko'k, qaro ranglarning motam mazmunini ifodalashi "libos" leksumasi orqali yuzaga chiqqan.

Rang sivolikasining paydo bo'lishi va taraqqiyoti inson ongidagi kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog'liq. Jamiyatning rivojlanishi ranglar semantikasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ranglar ma'lum bir xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti, urf-odati, qadriyatlar va an'analari, marosimlari, yashash sharoiti va ma'naviy dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq holda mazmunga ega bo'ladi [18, 53].

Deyarli barcha xalqlar madaniyatida qulayligi sababli ranglardan ramzlar sifatida foydalanish holatlari mavjud. Biroq tamaddunlar rivojlanishining o'ziga hos shartlari, mavjud sharoitlardan kelib chiqqan holda bir xil ranglar turli xalqlarda turli hodisalarning ramziy ma'nosini anglatadi.

Qadimgi Rusda kamalakning to'rt xil rangi to'rt tabiat hodisalariga qiyoslangan: yashil rang – suv, moviy rang – havo, qizil rang – olov, qora rang esa yerdi bildirgan. Xitoyliklarda esa, dunyoning to'rt tomoni to'rt rang bilan belgilangan: yashil – Sharq, qizil – Janub, oq – G'arb va qora – Shimol kabi.

V.Ternerning ta'kidlashicha, "oq - qizil - qora ranglar triadasi misli ko'rilmagan ahamiyatga ega bo'lib, bu ranglar bilan ifodalangan boy ma'no butun insoniyat uchun umumiydir". Ibtidoiy insonning qoyatoshlarda qoldirgan san'at asarlarida ham ushbu (oq, qora va qizil) ranglar ko'p o'rinlarda uchraydi va voqelikni aks ettirishda muhim rol o'ynaydi [16, 101].

Yuqorida qayd etilganidek, ranglar palitrasi va tilimizda ularni ifoda etuvchi leksemalar miqdor jihatdan ko'pligini inobatga olib, ishimizda oq - qizil - qora ranglar triadasiga kiruvchi oq va qora ranglar misolida o'zbek tili kolorativ leksikasining ramziy ifoda bilan bog'liq ayrim xususiyatlarini ochib berishga harakat qildik.

V.Terner, boshqa ranglar kabi oq rangning ma'nolari ildizlarini insonning psixobiologik tajribasidan izlash kerak, deb hisoblaydi. Olim oq rang ma'nolarini ona sutining rangi bilan bog'liq assotsiatsiyalarga bog'laydi. Butun insoniyat tarixida oq rang - poklik, yaxshilik, farovonlik, yetuklik, poklanish, hayot, salomatlik, do'stona munosabat, mavqe jihatidan ustunlik yoki hokimiyat, kuch va salomatlik manbai, ajdodlar ruhlari bilan uchrashish va xotirlash, ovchilik jasorati, saxiylik, ko'payish, ko'z (ko'rish)ning aniqligi, muvaffaqiyatsizliklar va o'limning mavjud emasligi kabi ma'nolarni ramzlashtirgan. Ushbu rang avval ham, hozir ham barcha xalqlar uchun universal ma'noga ega bo'lib, asosan, tinchlik, hayot, borlikni ifodalaydi. Shu sababli ko'plab urf-odatlar bilan bog'liq marosimlarda oq rangga alohida e'tibor qaratiladi. Masalan, jonliq qurbonlik qilish marosimida ayrim xalqlarda oq rangli hayvonlar tanlanadi. Shu jumladan, o'zbeklar va shu hududda yashovchi xalqlarda qurbonlik yoki ehsonga berilgan jonivorlarga oq matolar bog'lash udumi hozirgacha saqlanib kelmoqda.

Bo'yniga oq bog'lagan jonliqlar,  
Roziman deyishing kutyapti...

O'zbek tilida ham oq rang – yuqoridagi kabi tinchlik, poklik, hayot, бахт, tole kabi ezgu tushunchalarni ramzlashtiradi. Ayniqsa, "oppoq tong", "oppoq orzular", "oq atirgul", "oq nur", "oppoq kapalak", "oq libos" kabi birikmalar tarkibida, aniqlanmishning ramziy ma'nolarini kuchaytirish, ularga qo'shimcha ramziy ma'nolarni yuklash vazifalarini bajaradi.



Salom bo'lsin oylarning eng ezgusiga,  
 Salom bo'lsin uning oppoq injusiga.  
 (A.Oripov "Salomnoma")  
 "Bor bo'lsin shu qirq o'rim soch, o'smali qosh,  
 Oq yaktagu beqasam to'n, shohi belbog'"

(M.Yusuf "Inshoolloh")

Oq tulporday minib oppoq bulutni,  
 Uyingning ustidan o'tadi ruhim...

(M.Yusuf, "Zebijon")

Yuqorida keltirilgan she'riy parchalar tarkibidagi "oppoq inju", "oq tulpor", "oppoq bulut" birikmasida *ezgu niyatlar, yaxshi umidlar, pok ruh, gunohsizlik* ma'nolarini, "oq yaktagu" birikmasida oq ko'ngilli, pok qalbli o'zbek ma'nosini ramzlashtirishga xizmat qilgan. Ayrim o'rinlarda oq rang o'zining ramziy ma'nosiga taskari tushunchalarni ham ifodalaydi. Xususan, "Bobur lirikasida oq rangning an'anaviy tushunchasiga qarama-qarshi tabiiy xususiyatiga xos ifodasini qo'llanishi orqali o'ziga xos "tazod"ni yuzaga keltirishi bilan Boburona badiiy uslubni yuzaga chiqarganini kuzatamiz:

To **oq** yuzung yiroq tushti,  
 Ikki ko'zum ichra **oq** tushti.

**Oq yuz** jumlasida yuzning oq bo'lishi ijobiy ma'noda, ya'ni go'zallikni ifodalash barobarida qo'llanadi. Endi ikkinchi *oq tushdi* jumlasidagi rang esa salbiy ma'noda, tabiiy xususiyatiga ko'ra ko'zlarning ko'r bo'lishi – dramatik holat tasviri sifatida keltiriladi" [2, 43].

Ba'zan badiiy va og'zaki nutqda "oq" leksemasi uning antonimi bo'lgan "qora" leksemasi bilan birgalikda kontrast qo'llaniladi. Ular bir matn doirasida yoki juft leksema shaklida qo'llanganda ayrim hollarda har ikki leksemaning ramziy ma'nosini qiyoslash orqali bo'rttirish, ayrim hollarda boshqa ranglardan mosuvollik, umidsizlik, baxtsizlik kabi ma'nolar ramzlashadi. Masalan,

Ishon, yurak **oqdir, qarodir** taqdir,  
**Oq-qora** bo'yoqlar bizning bog'larda...

Men milyon bo'yoqni bilardim, axir,  
 Ikkimiz baxtiyor bo'lgan chog'larda.

(U.Azim. "Grafika")

Keltirilgan she'riy parchaning dastlabkisida, oq va qora ranglar qiyoslanib, "*yaxshilik*" va "*yomonlik*" ramzini bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qilgan bo'lsa, keyingi parchada "*umidsizlik*", "*baxtsizlik*" kabi ma'nolar ifodalanmoqda. Har ikki misolda ham ramziy ma'nolar matn orqali anglashiladi. Qayd etish kerakki, "kontrast qo'yilgan ranglarning tabiiy xususiyatidan ko'ra mafkuraviy-g'oyaviy ifodaviyligi kuchliroq namoyon bo'ladi" [2, 16].

Ibtidoiy odamlarning hayotida qora rang - o'lim, yovuzlik, poklikning yo'qligi, omadsizlik, azob-uqubatlar, kasallik, sehr-jodu, tun, qorong'ulik kabi ma'nolarni anglatgan. Bunga qora tun, yorug'likning yo'qligi, odam faolligining pasayishi va cheklanishi sababli turli kuchlar, yirtqichlardan himoyasiz qolishi sabab bo'lgan. Qora - ongsizlik, o'lim, kul va yo'q bo'lish rangi hisoblangan.

O'zbek tilida qora rang o'z va ko'chma ma'nolarida qo'llanib, odatda, salbiy tushunchalarni ramzlashtiradi. Masalan, "qora niyat", "qora kun", "qora quzg'un", "qora zulmat", "qora qismat" kabi.

Shahidlarning qirmiz qonidan  
 Alvon bo'ldi **qora** tunlaring.  
 (A.Oripov "O'zbekiston – Vatanim manim")  
 Bo'g'zimga bahaybat qayg'u tiqildi,  
 Ko'zimga yiqildi **qop-qora** bulut...  
 (U.Azim, "Abdulla Qodiriy").  
 Qorajoning **qora** kunlar boshidadir,  
 Mushfiq singling Boysun tog'u toshidadir.

(U.Azim, "Baxshiyona")

Yuqoridagi misollarda **qora** leksemasi "azobli, qiyinchilik to'la tunlar", "qayg'u", "yomonlik", "sinovli va mashaqqatli kunlar" kabi qator ma'nolarning ramziy ifodasidir. Shu bilan birga, qora rang tuproq, yer leksemalari bilan birgalikda qo'llanib, o'limni, narigi dunyoni ham ramzlashtiradi.

Qora rang o'zining ramziy tabiatiga ko'ra ikki tomonlama mazmun ifodalaydi. U yovuzlikni, qayg'uni, o'limni, umidsizlikni, yer osti dunyosini, shu bilan birga go'zallik, nafislikni ham anglatishi mumkin. Aksariyat xalqlar oq va qora ranglarga nisbatan xuddi shunday munosabatda bo'ladi.



## TILSHUNOSLIK

Oq - kunning rangi, qora - tunning rangi ekanligi, oq rangning yaxshilik bilan, qora rangning yomonlik bilan aloqasini keltirib chiqargan. Geraldikada oq rang poklik, aybsizlik, halollik ramzidir, shuningdek qora rang ham ijobiy ma'noga ega bo'lib, donolik, abadiylikni anglatadi. Huddi shuningdek, ayrim madaniyatlarda, masalan, qurg'oqchilik ko'p davom etadigan mamlakatlar xalqlarida qora rang – yomg'ir keltiruvchi qora bulut bilan bog'liq holda, to'kinlik, omad, rizq kabi ezgu tushunchalar ramzi hisoblanadi.

Adabiyotshunos I.Haqqulov qora rangning turkiy xalqlarda ijobiy ma'noda ekanligini va muqaddas sanalishi, qadimdan "Qorabosh tug", "Siyahpo'shlar" kabi e'tiqodlarda namoyon bo'lganligi Abbosiylar halifasining bayrog'i qora rangda bo'lganini aytib o'tadi. Alisher Navoiy ijodida ham bu rang muborak deb qaralganini ta'kidlaydi [17, 17].

Najmiddin Kubroning "Latoif" nazariyasida ranlarning o'zgaruvchanligini quyidagicha aniqlaydi: oq-sariq-ko'k-zangori-yashil-qizil-qora. Bu yetti xil rang muridning yetti xil holatini, ya'ni oq – islom, yashil – imon, qizil – irfon, qora hayrat va hayajonni ko'rsatadi. Shuningdek, yashil rang ulug' rang sanalib. Haqiqiy imonni, hayotiylikni ifodalaydi. Sariq rang Allohga bo'lgan kuchli muhabbat, Alloh tomonga yo'l boshlash, tariqat ramzi sifatida aks ettirilgan. Tasavvufda ranglar har bir tariqatning asosiy g'oyasini, tushuncha va qarashlarini, muridning holatini, nafs shakllarini o'zida mujassam etadi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda qayd etish lozimki, o'zbek tilida rang bildiruvchi sifat so'z turkumiga oid leksemalar asosida yangi leksemalar yasalganda ham, rang orqali ifodalangan ramziy ma'noning saqlanib qolishi kuzatildi. Masalan, oq – oqarmoq, qizil – qizarmoq, ko'k – ko'karmoq kabi. Derivatsiya asosida so'zning lug'aviy ma'nosi o'zgaradi, lekin ramziylik, ko'p hollarda, saqlanadi. Bu esa leksema asosidagi rang bildiruvchi leksemaga oid belgilar sababli yuzaga keladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, ranglar kishilar hayoti, aloqa-aralashuv jarayonlarining ajralmas qismiga aylangan. Turli ma'nolarning ranglar orqali yorqin va sermazmun ifodalanishida esa, ramziylikning o'rni yetakchilik qiladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Berlin B., Kay P. Basic colour terms: Their universality and evolution. Berkeley: University of California Press, 1969.
2. Абдурахмонов А. Ўзбек шеъриятида нур, ранг ва руҳият тасвири поэтикаси (анъана ва новаторлик аспекти). Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. - Фарғона, 2018.
3. Апресян Ю.Д. Новый большой англо-русский словарь: В 3-х т. – М.: Русск. яз., 2000.
4. Базыма Б.А. Психология цвета. Теория и практика – СПб.: Речь, 2005.
5. Вежицкая А. Обозначения цвета и универсалии зрительного восприятия // Вежицкая А. Язык. Культура. Познание. М.: Русские словари, 1996.
6. Виноградов В.В. Поэтика русской литературы. М., 1976.
7. Власова Е. А. Символика цветообозначений в британском и американском вариантах английского языка: Дисс... канд. филол. наук. - Оренбург, 2008.
8. Гатауллина Л.Р. Роль цветообозначений в концептуализации мира: на материале фразеологизмов английского, немецкого, французского, русского и татарского языков: автореф. дисс... канд. филол. наук. Уфа, 2005.
9. Глазунова О. И. Логика метафорических преобразований. СПб.: Питер, 2000.
10. Мартынова Н.А. «Символическое» цветообозначений в русской лингвокультуре // Филология и человек – № 4. – 2013.
11. Прохорова А. Цветовая символика в английских и русских устойчивых словосочетаниях // Перспективы Науки и Образования. – 2014.
12. Сапига Е.В., Репина М.В., Жукова - С. В. Цветообозначения в современной лингвистике: семантический и семиотический аспекты.// Образование и педагогические науки. 2016-8-2/2.
13. Свирепю О.А., Туманова О.- С. Образ, символ, метафора в современной психотерапии. – М. Изд-во Института Психотерапии, 2004.
14. Серов Н.В. Цвет римской одежды в контексте мировой культуры // Мнемон: исследования и публикации по истории античного мира / под ред. Э. Д. Фролова. СПб.: Изд-во Санкт-Петербургского государственного университета, 2009.
15. Сурмятова Ю.В. Устойчивые сочетание слов цветокомпонентом ... в идиоматическом картине мира немецкого языка // Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Серия «Гуманитарные науки». 2017. №12-2.
16. Тернер В. Символ и ритуал. - М., «Наука», 1983.
17. Ҳаққулов И. Яна қора ранг ҳақида.// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2001. -3-сон.
18. Эшонқулов Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши, Насаф. 1999.